

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

BMT SIYOSIY DISKURSINING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Kuchimova Nilufar Turanbayevna

Samarqand davlat chet tillar instituti, doktorant.

e-mail: nilufarkuchimova9008@gmail.com **ORCID:** <https://orcid.org/0009-0001-5796-667X>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada Birlashgan Millatlar Tashkiloti siyosiy diskursining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. BMT doirasida shakllanadigan siyosiy nutqlarning kommunikativ maqsadi, adresant va adresat munosabatlari, nutqiy strategiya va taktikalar, shuningdek, pragmatik ta'sir vositalarining funksional xususiyatlariga alohida e'tibor qaratiladi. BMT Bosh Assambleyasi, Bosh kotib bayonotlari hamda xalqaro siyosiy muloqotga oid rasmiy nutqlarda qo'llaniladigan ishonitirish, da'vat qilish, baholash, legitimlashtirish, hamkorlikka undash va pozitsiyani asoslash kabi kommunikativ strategiyalarning diskursiv vazifalari yoritiladi. Shuningdek, siyosiy diskursda modal birliklar, shaxs olmoshlari, baholovchi leksika, metaforik ifodalar, takror va parallel konstruksiyalarning pragmatik ahamiyati ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari BMT siyosiy diskursining nafaqat axborot yetkazishga, balki xalqaro hamjamiyatning muayyan hodisalarga munosabatini shakllantirish, umumiy qadriyatlarni mustahkamlash hamda kollektiv harakatga undashga xizmat qiluvchi murakkab kommunikativ tizim ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: BMT, siyosiy diskurs, kommunikativ pragmatika, nutqiy strategiya, nutqiy taktika, pragmatik ta'sir, siyosiy kommunikatsiya, diplomatik diskurs, nutq akti, modal birliklar.

КОММУНИКАТИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОЛИТИЧЕСКОГО ДИСКУРСА ООН

Кучимова Нилуфар Туранбаевна

Самаркандский государственный институт иностранных языков, докторант.

Аннотация.

В статье с лингвистической точки зрения анализируются коммуникативно-прагматические особенности политического дискурса Организации Объединённых Наций. Особое внимание уделяется коммуникативным целям политических выступлений, формирующихся в рамках ООН, взаимоотношениям адресанта и адресата, речевым стратегиям и тактикам, а также функциональным особенностям средств прагматического воздействия. Раскрываются дискурсивные функции таких коммуникативных стратегий, как убеждение, призыв, оценивание, легитимация, побуждение к сотрудничеству и аргументация позиции, используемых в выступлениях на Генеральной Ассамблее ООН, заявлениях Генерального секретаря и официальных речах, относящихся к международной политической коммуникации. Рассматривается также прагматическое значение модальных единиц, личных местоимений, оценочной лексики, метафорических выражений, повторов и параллельных конструкций в политическом дискурсе. Результаты исследования показывают, что политический дискурс ООН представляет собой сложную коммуникативную систему, направленную не только на передачу информации, но и на формирование отношения международного сообщества к определённым событиям, укрепление общих ценностей и побуждение к коллективным действиям.

Ключевые слова: ООН, политический дискурс, коммуникативная прагматика, речевая стратегия, речевая тактика, прагматическое воздействие, политическая коммуникация, дипломатический дискурс, речевой акт, модальные единицы.

COMMUNICATIVE AND PRAGMATIC FEATURES OF UN POLITICAL DISCOURSE

Kuchimova Nilufar Turanbayevna

Samarkand State Institute of Foreign Languages, Doctoral Student.

Abstract.

This article analyzes the communicative and pragmatic features of United Nations political discourse from a linguistic perspective. Particular attention is paid to the communicative purposes of political speeches produced within the UN framework, the

relationship between the addresser and the addressee, speech strategies and tactics, as well as the functional characteristics of pragmatic means of influence. The study examines the discursive functions of communicative strategies such as persuasion, appeal, evaluation, legitimation, encouragement of cooperation, and justification of positions employed in speeches at the UN General Assembly, statements by the Secretary-General, and official speeches related to international political communication. It also considers the pragmatic significance of modal units, personal pronouns, evaluative vocabulary, metaphorical expressions, repetition, and parallel constructions in political discourse. The findings demonstrate that UN political discourse constitutes a complex communicative system aimed not only at conveying information but also at shaping the international community's attitudes toward particular events, reinforcing shared values, and encouraging collective action.

Keywords: United Nations, political discourse, communicative pragmatics, speech strategy, speech tactics, pragmatic influence, political communication, diplomatic discourse, speech act, modal units.

Kirish. Insoniyat tarixida siyosiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishida til alohida o'rin tutib kelgan. Siyosiy maydonda so'z faqatgina muayyan axborotni yetkazish vositasi emas, balki jamoatchilik fikrini shakllantirish, muayyan pozitsiyani asoslash, hamkorlikka chaqirish, kelishuvga erishish yoki xalqaro hamjamiyatning muayyan masalaga munosabatini o'zgartirish imkonini beruvchi ta'sirchan kommunikativ vosita hisoblanadi. Ayniqsa, xalqaro siyosiy munosabatlarda nutqning mazmuni bilan bir qatorda, uning qanday shaklda ifodalanishi, qanday leksik va grammatik birliklarning tanlanishi hamda adresatga qanday pragmatik ta'sir ko'rsatishi muhim ahamiyat kasb etadi.

So'zning siyosiy kommunikatsiyadagi kuchiga BMTning sobiq Bosh kotibi **Ban Ki-moon** ham alohida e'tibor qaratgan. U 2016-yil 5-dekabrda e'lon qilingan "Righting a wrong in Haiti" nomli maqolasida: **"Words are powerful — but they cannot replace action and material support"**, ya'ni **"So'zlar kuchli, biroq ular amaliy harakat va moddiy yordamning o'rnini bosa olmaydi"**, deya ta'kidlagan. Mazkur fikr siyosiy nutqning ikki muhim xususiyatini namoyon etadi: bir tomondan, so'z insonlar va xalqaro hamjamiyatga ta'sir ko'rsatish kuchiga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan, siyosiy diskurs konkret harakat va qarorlar bilan mustahkamlangandagina o'zining haqiqiy kommunikativ samaradorligiga erishadi. Shu jihatdan BMT doirasidagi siyosiy nutqlarni o'rganish tilning xalqaro siyosiy jarayonlardagi funksional imkoniyatlarini aniqlash uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti zamonaviy xalqaro siyosiy kommunikatsiyaning eng yirik institutsional maydonlaridan biridir. BMT Bosh Assambleyasi sessiyalari, Xavfsizlik Kengashi yig'ilishlari, Bosh kotibning murojaat va bayonotlari, davlat va hukumat rahbarlarining chiqishlari orqali xalqaro siyosatning dolzarb masalalari muhokama qilinadi. Tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, qurolli nizolarning oldini olish, inson huquqlarini himoya qilish, iqlim o'zgarishi, qashshoqlik, migratsiya, barqaror rivojlanish kabi masalalar ushbu kommunikativ makonda muayyan til birliklari va diskursiv strategiyalar vositasida ifodalanadi. Natijada BMT siyosiy diskursi turli davlatlar, siyosiy manfaatlar va kommunikativ pozitsiyalar kesishadigan o'ziga xos institutsional diskurs sifatida shakllanadi.

BMT siyosiy diskursining muhim xususiyati shundaki, unda axborot berish funksiyasi pragmatik ta'sir funksiyasi bilan uzviy bog'langan. Siyosiy nutq so'zlovchining voqea yoki muammoga munosabatini bildirish bilan cheklanmaydi. Unda auditoriyani ishontirish, xalqaro hamjamiyatni muayyan harakatga undash, siyosiy pozitsiyani legitimlashtirish, mas'uliyatni belgilash, birdamlikni shakllantirish, tahdid yoki muammoning jiddiyligini ko'rsatish kabi kommunikativ maqsadlar ham amalga oshiriladi. Shu sababli BMT doirasidagi nutqlarning mazmunini to'liq tushunish uchun faqat ularning leksik-semantik tuzilishini emas, balki nutq muallifining kommunikativ niyati, adresat omili va nutqning muayyan siyosiy vaziyatdagi pragmatik vazifasini ham hisobga olish zarur.

Kommunikativ-pragmatik nuqtayi nazardan siyosiy diskursda ishontirish, baholash, da'vat qilish, ogohlantirish, legitimlashtirish, birdamlikni ifodalash va hamkorlikka undash kabi strategiyalar alohida ahamiyatga ega. Bunday strategiyalar modal fe'llar, shaxs olmoshlari, baholovchi leksika, metaforalar, takrorlar, parallel sintaktik konstruksiyalar hamda turli nutq aktlari yordamida yuzaga chiqariladi. Masalan, *we must, we need, we call upon, we urge, the international community must* kabi konstruksiyalarning BMT nutqlarida qo'llanishi shunchaki grammatik hodisa emas, balki majburiyat, zarurat, umumiy mas'uliyat va kollektiv harakat g'oyalarini yuzaga chiqaruvchi pragmatik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, *we, our, together, shared responsibility* singari birliklarning faol qo'llanishi adresant va adresat o'rtasida umumiylik hissini shakllantirish hamda muayyan siyosiy maqsad atrofida xalqaro hamjamiyatni birlashtirish vazifasini bajaradi.

BMT siyosiy diskursini kommunikativ-pragmatik jihatdan tadqiq etish siyosiy nutqda til birliklarining tanlanishi tasodifiy emasligini, aksincha, ularning muayyan kommunikativ maqsad va pragmatik ta'sirga yo'naltirilganligini aniqlash imkonini beradi. Bu jihatdan siyosiy diskursning funksional xususiyatlari adresantning kommunikativ niyati, adresatga ta'sir ko'rsatish usuli, siyosiy vaziyat va institutsional kommunikatsiya me'yorlari bilan bevosita bog'liq holda yuzaga chiqadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Diskurs tushunchasi zamonaviy tilshunoslikda faqat matn yoki nutq hodisasi sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy, siyosiy va madaniy sharoitda yuzaga keladigan kommunikativ faoliyat sifatida o'rganiladi. Shu sababli siyosiy diskursni tadqiq etishda til birliklarining formal xususiyatlari bilan cheklanib qolmay, ularning qanday sharoitda, kim tomonidan, kimga va qanday kommunikativ maqsadda qo'llanayotganini hisobga olish talab etiladi. Diskurs

nazariyasining shakllanishida M. Foucault, N. Fairclough, T. A. van Dijk, R. Wodak va P. Chiltonning tadqiqotlari alohida ilmiy ahamiyatga ega.

Diskursning ijtimoiy va hokimiyat bilan bog'liq mohiyatini ochib bergan olimlardan biri fransuz faylasufi **Michel Foucault** hisoblanadi. Uning diskursga doir qarashlari keyinchalik tilshunoslik, siyosatshunoslik va tanqidiy diskurs tahlilining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Foucault diskursni voqelik haqida mavjud fikrlarni shunchaki ifodalovchi vosita sifatida emas, balki bilim, hokimiyat va ijtimoiy munosabatlarni shakllantiruvchi tizim sifatida ko'radi. U "The Order of Discourse" asarida diskursning hokimiyat bilan bog'liqligini ta'kidlab, **"discourse is the power which is to be seized"** ("diskurs egallanishi lozim bo'lgan hokimiyatdir"), deb yozadi [1]. Mazkur qarashga ko'ra, jamiyatda qaysi masala haqida gapirish mumkinligi, kimning fikri legitim deb qabul qilinishi va muayyan hodisaning qanday talqin qilinishi diskursiv mexanizmlar bilan bog'liq. Demak, siyosiy diskursda til nafaqat mavjud siyosiy voqelikni tasvirlaydi, balki uning muayyan talqinini yaratadi. Aynan shu jihat siyosiy nutqlardagi nominatsiya, baholash, urg'u berish, muayyan ma'lumotni oldingi planga chiqarish yoki aksincha, ikkinchi darajaga tushirish kabi pragmatik hodisalarni o'rganish uchun muhim nazariy asos yaratadi.

Diskursning ijtimoiy tabiati **Norman Fairclough** tomonidan yanada tizimli ravishda rivojlantirilgan. Olimning "Discourse and Social Change" asari tanqidiy diskurs tahlilining asosiy nazariy manbalaridan biri hisoblanadi. Fairclough til va jamiyat o'rtasidagi munosabatni ikki tomonlama jarayon sifatida tushuntiradi: bir tomondan, diskurs mavjud ijtimoiy tuzilmalar, institutlar va munosabatlarning ta'sirida shakllansa, ikkinchi tomondan, diskursning o'zi ham ana shu munosabatlarni shakllantirish va o'zgartirish imkoniyatiga ega. Uning fikricha, **"Discourse is a practice not just of representing the world, but of signifying the world, constituting and constructing the world in meaning"** [2]. Ya'ni diskurs dunyoni oddiy aks ettirish bilangina cheklanmaydi, balki unga ma'no beradi va ijtimoiy voqelikni konstruksiyalash jarayonida ishtirok etadi. Faircloughning ushbu qarashi siyosiy nutqni tahlil qilishda ayniqsa muhimdir. Chunki siyosatchi muayyan hodisani "muammo", "tahdid", "inqiroz", "imkoniyat", "majburiyat" yoki "umumiy mas'uliyat" sifatida nomlash orqali auditoriyaning shu hodisaga bo'lgan munosabatini ma'lum yo'nalishda shakllantirishi mumkin. Shunday ekan, siyosiy diskursda leksik tanlovning o'zi ham muayyan kommunikativ va pragmatik vazifani bajaradi.

Siyosiy diskurs nazariyasining rivojlanishida niderlandiyalik tilshunos **Teun A. van Dijk** tadqiqotlari alohida o'rin egallaydi. Olim diskursni matnning ichki lingvistik tuzilishi bilangina emas, balki uning ijtimoiy konteksti, kommunikativ ishtirokchilari, ularning bilimlari, qarashlari va ideologik pozitsiyalari bilan bog'liq holda tahlil qilish zarurligini asoslaydi. Van Dijk siyosiy diskursni, avvalo, siyosiy aktorlar va institutlarning kommunikativ faoliyati bilan bog'laydi. Bunda parlament nutqlari, siyosatchilarning chiqishlari, hukumat bayonotlari, siyosiy debatlar va boshqa institutsional kommunikativ shakllar tadqiqot obyekti bo'lishi mumkin [3]. Olim siyosiy hokimiyat va ommaviy diskurs o'rtasidagi munosabatni ifodalab, **"Who controls public discourse, at least partly controls the public mind"** ("Kim ommaviy diskursni nazorat qilsa, hech bo'lmaganda qisman jamoatchilik ongini ham nazorat qiladi"), deb ta'kidlaydi [3]. Ushbu fikr siyosiy kommunikatsiyaning pragmatik tabiatini tushuntirishda muhimdir. Siyosiy nutqda ma'lum axborotning tanlanishi, hodisalarning ijobiy yoki salbiy baholanishi, "biz" va "ular" kabi guruhviy qarama-qarshiliklarning yaratilishi hamda ayrim argumentlarning takroriy qo'llanishi auditoriyaning siyosiy voqelik haqidagi kognitiv tasavvurlariga ta'sir qilishi mumkin.

Diskurs, hokimiyat va siyosiy kommunikatsiya munosabatlarini o'rganishda **Ruth Wodak**ning tadqiqotlari ham muhim nazariy ahamiyatga ega. Olima tanqidiy diskurs tahlili va diskurs-tarixiy yondashuv doirasida til birliklarini ularning tarixiy, ijtimoiy va institutsional kontekstidan ajratmagan holda o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Wodakning yondashuvida siyosiy nutqdagi argumentatsiya, nominatsiya, predikatsiya, perspektivlashtirish, kuchaytirish va yumshatish singari strategiyalar orqali ijtimoiy aktorlar va hodisalarning muayyan obrazi shakllantirilishiga e'tibor qaratiladi. Til va hokimiyat munosabati haqida olim **"Language is not powerful on its own; it gains power by the use powerful people make of it"** [4], deb ta'kidlaydi. Ya'ni til o'z-o'zicha hokimiyatga ega emas; uning ta'sir kuchi tildan kim, qanday maqomda va qanday maqsadda foydalanishiga bog'liq. Bu fikr siyosiy diskurs uchun ayniqsa dolzarb, chunki davlat rahbari, xalqaro tashkilot rahbari, parlament vakili yoki boshqa siyosiy subyekt tomonidan aytilgan bir xil til birligi oddiy kundalik muloqotdagi xuddi shu birlikdan pragmatik jihatdan farqli ta'sirga ega bo'lishi mumkin. Demak, siyosiy nutqning kommunikativ samaradorligini aniqlashda adresantning institutsional maqomi, kommunikativ vaziyat va adresat omilini birgalikda o'rganish zarur.

Til va siyosat munosabatlarini bevosita siyosiy diskurs tahlili doirasida tadqiq etgan yetakchi olimlardan yana biri **Paul Chilton**dir. Uning "Analysing Political Discourse: Theory and Practice" asarida siyosiy faoliyat va til o'rtasidagi uzviy bog'liqlik nazariy hamda amaliy misollar asosida ko'rsatib berilgan. Chilton siyosiy jarayonlarda ishtirokchilarni, muzokara olib borish, legitimlikni ta'minlash, qarorlarni asoslash va hokimiyat munosabatlarini amalga oshirish kommunikatsiyasiz mavjud bo'la olmasligini ta'kidlaydi. Olimning **"political activity does not exist without the use of language"** ("siyosiy faoliyat tildan foydalanmasdan mavjud bo'la olmaydi") degan fikri [5] siyosiy diskursning mohiyatini juda aniq ifodalaydi. Chiltonning yondashuvida siyosiy nutqda so'zlovchi o'zini va boshqalarni qanday pozitsiyalashi, voqea va hodisalarni auditoriyaga qanday masofada tasvirlashi, majburiyat, xavf, yaqinlik, uzoqlik va harakat zaruratini qanday lingvistik vositalar orqali ifodalashi muhim hisoblanadi. Shu jihatdan modal birliklar, shaxs olmoshlari, deiktik vositalar, metaforalar va argumentativ konstruksiyalar siyosiy nutqning pragmatik tuzilishini yuzaga keltiradigan vositalar sifatida namoyon bo'ladi.

Ko'rib chiqilgan ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, diskurs tadqiqotlarida tilga oddiy axborot almashish vositasi sifatida qarash yetarli emas. Foucault diskursning hokimiyat va bilim bilan aloqasini ochib bergan bo'lsa, Fairclough uning ijtimoiy voqelikni konstruksiyalash xususiyatini asoslaydi. Van Dijk siyosiy diskursni

kontekst, ijtimoiy kognitsiya va hokimiyat munosabatlari bilan bog'laydi. Wodak siyosiy kommunikatsiyaning tarixiy va institutsional sharoitini hamda tilning hokimiyat subyektlari tomonidan qo'llanishini markaziy masala sifatida ko'radi. Chilton esa siyosatning amalga oshirilishida tilning fundamental rolini ko'rsatadi. Mazkur nazariy qarashlar bir-birini to'ldirgan holda siyosiy diskursning kommunikativ-pragmatik tabiatini kompleks tahlil qilish imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan, siyosiy diskursni kommunikativ-pragmatik jihatdan o'rganishda **adresantning kommunikativ maqsadi, adresatga yo'naltirilgan ta'sir, siyosiy va institutsional kontekst, nutqiy strategiyalar, baholash, legitimlashtirish, ishontrish, da'vat va kollektiv identifikatsiyani shakllantiruvchi lingvistik vositalar** o'zaro bog'liq kategoriyalar sifatida qaralishi maqsadga muvofiq. Ushbu nazariy asoslar BMT doirasida yuzaga keladigan siyosiy nutqlarni ham alohida institutsional siyosiy diskurs sifatida kommunikativ-pragmatik jihatdan tadqiq etish uchun metodologik zamin yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda **kommunikativ-pragmatik tahlil metodi** qo'llanildi. Mazkur metod asosida BMT doirasidagi siyosiy nutqlarda adresantning kommunikativ maqsadi, adresatga ta'sir ko'rsatish usullari hamda nutqiy strategiyalarning lingvistik ifodalanishi tahlil qilindi. Tahlil jarayonida siyosiy nutqlarda uchraydigan ishontrish, da'vat qilish, baholash, legitimlashtirish, hamkorlikka undash va umumiy mas'uliyatni shakllantirish kabi kommunikativ-pragmatik funksiyalarga e'tibor qaratildi. Shuningdek, mazkur funksiyalarni yuzaga chiqarishda modal birliklar, shaxs olmoshlari, baholovchi leksika, takrorlar va boshqa pragmatik vositalarning o'rni aniq nutqiy kontekst doirasida o'rganildi. Ushbu metod BMT siyosiy diskursida til birliklarining nafaqat mazmuniy, balki muayyan kommunikativ niyat va pragmatik ta'sirni amalga oshirishdagi funksiyasini aniqlash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

BMT siyosiy diskursining kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini aniqlash maqsadida BMT Bosh Assambleyasi doirasida e'lon qilingan rasmiy siyosiy nutqlardan namunalar tahlil qilindi. Tahlilda nutqning mazmunini qayta bayon qilishdan ko'ra, siyosiy kommunikatsiyada muayyan til birligi nima sababdan tanlangani, u qanday kommunikativ niyatni yuzaga chiqarishi va adresatga qanday pragmatik ta'sir ko'rsatishi masalasiga asosiy e'tibor qaratildi. Kuzatuvlar BMT siyosiy diskursida kollektiv mas'uliyatni shakllantirish, harakatga da'vat etish, siyosiy pozitsiyani legitimlashtirish, muammoni baholash, ishontrish va ta'sirni kuchaytirish funksiyalari o'zaro uzviy bog'langan holda namoyon bo'lishini ko'rsatdi.

BMT siyosiy diskursida eng faol kommunikativ vositalardan biri **inklyuziv "we" olmoshi va deontik modallikning birgalikda qo'llanishidir**. BMT Bosh kotibi António Guterres 2024-yil 7-fevralda Bosh Assambleyada tashkilotning 2024-yil uchun ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan nutqida dunyodagi mojarolardan aziyat chekayotgan insonlar haqida so'z yuritarkan: **"We must hear them, and act"** – "Biz ularni eshitishimiz va harakat qilishimiz shart", deya ta'kidlaydi [8].

Mazkur jumlada *we* olmoshi oddiy birinchi shaxs ko'plik shakli vazifasini bajarish bilan cheklanmaydi. Uning referensial doirasi BMT rahbari, tashkilotga a'zo davlatlar hamda keng ma'noda xalqaro hamjamiyatni yagona kommunikativ subyekt sifatida birlashtiradi. Shu orqali muayyan muammoni hal qilish mas'uliyati alohida davlat yoki institut zimmasiga emas, balki umumiy "biz" zimmasiga yuklanadi. *Must* modal fe'li esa ifodaga deontik zarurat ma'nosini beradi. Bu yerda so'zlovchi "harakat qilish mumkin" yoki "harakat qilish maqsadga muvofiq" degan yumshoq pozitsiyani emas, "harakat qilish zarur" degan qat'iy kommunikativ pozitsiyani ilgari surmoqda. *Hear* va *act* fe'llarining ketma-ketligi ham pragmatik jihatdan ahamiyatli: birinchi harakat muammoni tinglash va anglashni, ikkinchisi esa amaliy javob berishni anglatadi. Natijada nutq **axborot berishdan direktiv kommunikativ funksiyaga** o'tadi.

Shunga o'xshash pragmatik hodisa Bosh kotibning ayni nutqida sun'iy intellekt masalasiga munosabat bildirilganda ham kuzatiladi: **"Artificial intelligence must not replace human agency"** – "Sun'iy intellekt inson faoliyati va irodasining o'rnini egallamasligi kerak" [8]. Ushbu jumlada *must not* shakli taqiq va qat'iy normativ cheklov semantikasini yuzaga chiqaradi. Muhimi, mazkur fikr "I think" yoki "I believe" kabi shaxsiy pozitsiyani bildiruvchi konstruksiyalar bilan emas, universal hukm shaklida berilgan. Buning natijasida fikr so'zlovchining individual qarashi sifatida emas, balki xalqaro hamjamiyat uchun umumiy tamoyil sifatida pragmatik jihatdan taqdim etiladi. Bunday usul BMT siyosiy diskursiga xos **normativlashtirish strategiyasining** ko'rinishlaridan biridir.

Siyosiy diskursning ta'sirchanligini oshirishda **takror va parallel konstruksiyalar** ham alohida o'rin tutadi. António Guterres 2023-yil 6-fevralda Bosh Assambleyada tashkilotning 2023-yildagi ustuvor yo'nalishlarini bayon qilarkan, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq harakatlarning sustligini tanqid qilib: **"No more baby steps. No more excuses. No more greenwashing"** – "Endi kichik qadamlar yo'q. Endi bahonalar yo'q. Endi soxta ekologik faoliyat yo'q", deya murojaat qiladi [6].

Mazkur fragmentda *No more* konstruksiyasining uch marta takrorlanishi **anforik takror** hosil qiladi. Gaplarning qisqa va bir xil sintaktik modelda tuzilishi esa fikrning ritmik va ekspressiv ta'sirini oshiradi. Bu o'rinda takror ortiqcha lingvistik element emas, balki pragmatik intensifikator sifatida xizmat qiladi. Birinchi konstruksiya yetarlicha tezkor bo'lmagan harakatlarni, ikkinchisi mas'uliyatdan qochishni, uchinchisi esa ekologik mas'uliyatni faqat tashqi kommunikativ obraz sifatida ko'rsatishni inkor etadi. Natijada so'zlovchi mavjud amaliyotlarni bosqichma-bosqich delegitimlashtirib, auditoriyani faolroq harakat qilish zarurligiga olib keladi.

Bu misolda siyosiy diskursning yana bir xususiyati namoyon bo'ladi: BMT nutqlaridagi direktivlik har doim grammatik buyruq gaplari orqali ifodalanmaydi. *No more...* kabi elliptik konstruksiyalar formal jihatdan buyruq gap bo'lmasa-da, pragmatik jihatdan "buni to'xtatish kerak" mazmunidagi kuchli talabni yuzaga chiqaradi. Demak, siyosiy diskursdagi kommunikativ niyatni aniqlashda gapning grammatik shaklidan tashqari, uning **kontekstual illokutiv kuchini** ham hisobga olish lozim.

BMT siyosiy diskursida **antiteza va muqobil tanlovni keskin chegaralash strategiyasi** ham faol qo'llaniladi. 2023-yil 19-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasi umumiy munozaralarini ochish chog'ida Guterres xalqaro institutlarni zamonaviy dunyo sharoitiga moslashtirish zarurligini asoslab, nihoyatda ixcham formuladan foydalanadi: **"It's reform or rupture"** – "Yo islohot, yo uzilish" [7].

Mazkur konstruksiya atigi bir necha so'zdan tashkil topgan bo'lsa-da, yuqori pragmatik yuklamaga ega. *Reform* va *rupture* tushunchalari qarama-qarshi qutblarga joylashtirilishi natijasida auditoriya oldiga ikkita yo'l qo'yiladi: mavjud xalqaro institutlarni isloh qilish yoki tizimning yanada parchalanishiga duch kelish. Bunda oraliq variantlar lingvistik jihatdan fon holatiga tushadi. Natijada "islohot" shunchaki mumkin bo'lgan siyosiy variant sifatida emas, salbiy oqibatning oldini olish uchun zarur bo'lgan mantiqiy tanlov sifatida **legitimlashtiriladi**. Bu usulni siyosiy kommunikatsiyadagi **binar freym yaratish strategiyasi** sifatida baholash mumkin.

Xuddi shu nutqda Bosh kotib: **"Politics is compromise. Diplomacy is compromise. Effective leadership is compromise"** degan parallel konstruksiyadan foydalanadi [7]. Bir xil sintaktik modelning ketma-ket uch marta qo'llanishi "murosa" tushunchasining semantik markazga chiqishiga xizmat qiladi. *Politics, diplomacy* va *effective leadership* turli siyosiy tushunchalar bo'lsa-da, ularning barchasi bitta predikativ belgi – *compromise* bilan bog'lanadi. Shunday qilib, murosa siyosiy zaiflik emas, aksincha, siyosat, diplomatiya va samarali rahbarlikning umumiy xususiyati sifatida konseptuallashtiriladi. Mazkur konstruksiyaning pragmatik vazifasi xalqaro siyosiy qarama-qarshiliklar sharoitida murosaga kelishni **normal va legitim siyosiy xatti-harakat sifatida namoyish etishdan** iborat.

BMT nutqlarining kommunikativ ta'sirchanligini ta'minlaydigan navbatdagi muhim vosita **konseptual metaforalardir**. 2024-yil 15-aprelda Bosh Assambleyada qarz barqarorligi va ijtimoiy-iqtisodiy tenglik masalalariga bag'ishlangan chiqishida Guterres rivojlanayotgan mamlakatlarning moliyaviy holatini tavsiflab: **"a world of debt means a world of pain"** – "qarzlarning dunyosi azob-uqubatlar dunyosini anglatadi", degan ifodadan foydalanadi [9].

Qarz iqtisodiy kategoriya bo'lsa-da, nutqda u insonning jismoniy va ruhiy kechinmasini anglatuvchi *pain* tushunchasi bilan bog'lanmoqda. Natijada murakkab moliyaviy masala oddiy statistik yoki iqtisodiy ko'rsatkich sifatida emas, inson hayotiga bevosita salbiy ta'sir qiluvchi holat sifatida konseptuallashtiriladi. Nutqning keyingi qismida rivojlanayotgan davlatlarning taraqqiyot yo'lida qo'li bog'langan holda yuqoriga ko'tarilishga urinayotgan subyektga o'xshatilishi ham mazkur metaforik freymni davom ettiradi. Bunday obrazlilik auditoriya tomonidan muammoning nafaqat ratsional, balki emotsional qabul qilinishini ham kuchaytiradi.

Aynan shu nutqda iqtisodiy tizimdagi muammolarning baholanishi asta-sekin normativ xulosaga olib keladi: **"This is immoral. This is wrong. This must change."** [9]. Uchta qisqa gapning ketma-ketligi pragmatik gradatsiyani yuzaga keltiradi. Dastlab hodisaga axloqiy baho beriladi (*immoral*), keyin u umumiy salbiy baho bilan mustahkamlanadi (*wrong*), so'ngra baholash bevosita direktiv zaruratga (*must change*) aylantiriladi. Demak, kommunikativ struktura **muammoni ko'rsatish → salbiy baholash → o'zgarish zaruratini asoslash** ketma-ketligida shakllanadi. Bu esa siyosiy diskursda baholovchi va direktiv funksiyalarning bir-biridan ajralmagan holda namoyon bo'lishini tasdiqlaydi.

BMT siyosiy diskursida **"tinchlik" konsepti ham kommunikativ jihatdan markaziy birlik sifatida freymlanadi**. Guterresning 2024-yilgi ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan nutqida tinchlik turli ijtimoiy-siyosiy muammolarni birlashtiruvchi konseptual markazga aylantiriladi. Nutq yakunida ishlatilgan **"Wars destroy. Peace builds."** antitezasi buning ixcham namunasi hisoblanadi [8].

Mazkur ikki qisqa gapda *war – peace* va *destroy – build* birliklari o'zaro qarama-qarshi semantik qutblarni hosil qiladi. Urushga vayron qiluvchi, tinchlikka esa bunyodkor kuch sifatida baho berilishi orqali tinglovchiga murakkab siyosiy mazmun sodda va esda qoladigan modelda yetkaziladi. Bunday aforistik konstruksiyalar siyosiy nutqning esda qolish darajasini oshirishi bilan birga, muallifning asosiy pozitsiyasini aniq belgilash vazifasini bajaradi.

Tahlil qilingan misollarni umumlashtirish BMT siyosiy diskursida quyidagi kommunikativ-pragmatik mexanizmlar muntazam ravishda bir-birini to'ldirishini ko'rsatadi:

Lingvistik vosita	Nutqdagi ko'rinishi	Kommunikativ strategiya	Pragmatik funksiya
Inklyuziv shaxs olmoshi	<i>we, our</i>	kollektivlashtirish	umumiy mas'uliyat hissini shakllantirish
Deontik modal birlik	<i>must, must not</i>	da'vat va normativlashtirish	harakatni zarurat sifatida taqdim etish
Anaforik takror	<i>No more...</i> modeli	intensifikatsiya	auditoriyaga ta'sirni kuchaytirish
Parallelizm	bir xil sintaktik modellar	ishontirish	asosiy g'oyani semantik markazga olib chiqish
Antiteza	islohot/uzilish, urush/tinchlik	freymlash	siyosiy tanlovni aniq chegaralash
Metafora	qarz–azob, taraqqiyot yo'li	baholash va konseptuallashtirish	abstrakt muammoni hissiy va tushunarli shaklga keltirish
Baholovchi leksika	salbiy/axloqiy baholash	delegitimlashtirish	mavjud holatni nomaqbul sifatida ko'rsatish
Qisqa direktiv konstruksiyalar	harakat zarurligini ifodalash	mobilizatsiya	adresatni amaliy faoliyatga undash

Masalan, iqlim masalasida dastlab ekologik holat salbiy baholanadi, keyin sust harakatlar tanqid qilinadi va oxirida davlatlarning birgalikdagi faoliyati talab etiladi. Qarz muammosida esa iqtisodiy vaziyat metaforik vositalar yordamida insoniy muammo sifatida freymlanib, undan so'ng mavjud tizim axloqiy jihatdan baholanadi va uni o'zgartirish talabi ilgari suriladi.

Tadqiqot natijasida BMT siyosiy diskursida kommunikativ-pragmatik ta'sir **faqat bitta lingvistik vosita hisobiga emas, balki bir nechta vositaning kombinatsiyasi** orqali amalga oshirilishi aniqlandi. Xususan, *we* olmoshi *must* modal fe'li bilan birga kelganda kollektiv mas'uliyat direktivlik bilan birlashadi; metafora baholovchi leksika bilan qo'llanganda iqtisodiy yoki siyosiy muammo emotsional tus oladi; takror va parallelizm esa mazkur pragmatik mazmunning intensivligini oshiradi. Bu esa siyosiy diskursning funksional samaradorligi leksik, grammatik, sintaktik va ritorik vositalarning o'zaro integratsiyasiga bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Shuningdek, tahlil BMT siyosiy diskursidagi **direktivlikning o'ziga xos xususiyatini** ko'rsatdi. Xalqaro diplomatik kommunikatsiyada to'g'ridan-to'g'ri buyruq berish imkoniyati cheklanganligi sababli harakatga undash ko'pincha *must*, *need*, *urge*, *call on* kabi modal va performativ birliklar, inklyuziv *we* olmoshi, axloqiy baholash va umumiy qadriyatlarga murojaat qilish orqali amalga oshiriladi. Natijada siyosiy talab buyruq ko'rinishidan ko'ra "umumiy zarurat", "umumiy mas'uliyat" yoki "xalqaro hamjamiyatning umumiy manfaatlari" shaklida pragmatik jihatdan yumshatiladi va legitimlashtiriladi.

Umuman olganda, tahlil BMT siyosiy diskursining kommunikativ-pragmatik xususiyati **axborot yetkazishdan ko'ra kengroq funksional maydonga ega** ekanini ko'rsatadi. BMT nutqlarida til global muammoni nomlash, unga baho berish, xalqaro hamjamiyatning umumiy pozitsiyasini shakllantirish, siyosiy harakatni legitimlashtirish va kollektiv faoliyatga undash vositasiga aylanadi. Ayniqsa, inklyuziv olmoshlar, modal birliklar, metafora, antiteza, takror va parallel konstruksiyalarning faol qo'llanishi siyosiy nutqning pragmatik ta'sir kuchini oshiradi. Shu bois BMT siyosiy diskursini kommunikativ-pragmatik hodisa sifatida o'rganishda "nima deyilgan?" savoli bilan cheklanmasdan, **"nima maqsadda aytilgan?", "qanday lingvistik vosita bilan ifodalangan?" va "adresatda qanday kommunikativ natija yuzaga keltirish ko'zlangan?"** kabi savollarni birgalikda tahlil qilish muhim hisoblanadi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot BMT siyosiy diskursining kommunikativ-pragmatik tabiati ko'p qatlamli va funksional jihatdan murakkab ekanini ko'rsatdi. Mazkur diskursda til faqat axborotni yetkazish vositasi sifatida emas, balki xalqaro hamjamiyatning muayyan masalaga munosabatini shakllantirish, siyosiy pozitsiyani asoslash, umumiy mas'uliyatni yuzaga keltirish va kollektiv harakatga undash vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan BMT siyosiy nutqlarida kommunikativ maqsad va pragmatik ta'sir bir-biri bilan uzviy bog'langan holda amalga oshiriladi. Tahlil natijalari BMT siyosiy diskursida ishonitirish, da'vat qilish, baholash, legitimlashtirish, normativlashtirish va kollektivlashtirish strategiyalari yetakchi o'rin egallashini ko'rsatdi. Mazkur strategiyalar inklyuziv *we* olmoshi, *must*, *must not* kabi modal birliklar, baholovchi leksika, metaforalar, antitezalar, takror va parallel sintaktik konstruksiyalar orqali ifodalanadi. Ushbu vositalar alohida holda emas, balki o'zaro uyg'unlashgan holda qo'llanib, nutqning pragmatik ta'sirchanligini kuchaytiradi. BMT siyosiy diskursining muhim xususiyatlaridan biri direktiv mazmunning ko'pincha ochiq buyruq shaklida emas, balki umumiy zarurat, xalqaro mas'uliyat va umumiy manfaatlar shaklida ifodalanishidir. Bu esa diplomatik kommunikatsiyaning institutsional tabiatiga mos ravishda siyosiy talab va chaqiriqlarni yumshoqroq, biroq ta'sirchan shaklda yetkazish imkonini beradi. Shu bilan birga, metafora va baholovchi birliklardan foydalanish global siyosiy, iqtisodiy yoki ekologik muammolarni nafaqat mantiqiy, balki emotsional jihatdan ham qabul qilishga xizmat qiladi. Umuman olganda, BMT siyosiy diskursini kommunikativ-pragmatik nuqtayi nazardan o'rganish siyosiy nutqning ichki lingvistik tuzilishi bilan bir qatorda, uning kommunikativ maqsadi, adresant va adresat munosabati, institutsional konteksti hamda pragmatik natijasini kompleks tarzda yoritish imkonini beradi. Shu sababli BMT doirasidagi siyosiy nutqlarni tahlil qilishda til birliklarining shakli xususiyatlari bilan cheklanmay, ularning qanday strategik vazifani bajarishi va xalqaro auditoriyaga qanday ta'sir ko'rsatishi masalasiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Foucault M. The Order of Discourse / transl. by I. McLeod // *Untying the Text: A Post-Structuralist Reader* / ed. by R. Young. – Boston: Routledge & Kegan Paul, 1981. – P. 48–78. – URL: Google Books
2. Fairclough N. *Discourse and Social Change*. – Cambridge: Polity Press, 1992. – URL: WorldCat
3. van Dijk T. A. What Is Political Discourse Analysis? // *Belgian Journal of Linguistics*. – 1997. – Vol. 11. – P. 11–52. – DOI: 10.1075/bjl.11.03dij. – URL: John Benjamins
4. Wodak R. *The Discourse of Politics in Action: Politics as Usual*. – 2nd revised ed. – Palgrave Macmillan, 2011. – 272 p. – URL: Lancaster University
5. Chilton P. *Analysing Political Discourse: Theory and Practice*. – London; New York: Routledge, 2004. – 240 p. – URL: Google Books
6. Guterres A. *Briefing to the General Assembly on the Priorities of the Organization for 2023*. – New York: United Nations, 6 February 2023. – SG/SM/21680. – URL: United Nations
7. Guterres A. *World Needs 'Statesmanship, Not Gamesmanship and Gridlock', Secretary-General Tells General Assembly, Calling for Determination to Uphold Charter's Pledge for Peace*. – New York: United Nations, 19 September 2023. – SG/SM/21947. – URL: United Nations Digital Library
8. Guterres A. *Briefing to the General Assembly on the Priorities of the Organization for 2024*. – New York: United Nations, 7 February 2024. – SG/SM/22127. – URL: United Nations
9. Guterres A. *Remarks to the General Assembly Debate on Debt Sustainability and Socioeconomic Equality for All*. – New York: United Nations, 15 April 2024. – SG/SM/22191. – URL: United Nations